SHERALI JO‘RAYEV IJODIDA MILLIY MUSIQIY TAFAKKUR VA ESTRADA IJROCHILIK USLUBINING O‘ZIGA XOSLIGI

Nodirova Dilobar To’lqin qizi
O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi
Magistranti/tadqiqotchi

Annotatsiya.
O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbek Estrada san’atini yirik nomoyondalaridan biri bo’lgan Sherali Jo‘rayevning o‘zbek estrada san’ati rivojidagi o‘rni, ijrochilik uslubining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Xonanda ijodida milliy musiqiy tafakkur, xalq va mumtoz musiqa an’analarining zamonaviy estrada vositalari bilan uyg‘unlashuvi, she’riy matn va musiqiy obrazning o‘zaro munosabati masalalariga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot Sherali Jo‘rayev fenomenini nafaqat mashhur ijrochi, balki o‘zbek qo‘shiqchiligida muayyan ijodiy maktab shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan san’atkor sifatida ko‘rib chiqadi.

Kalit so‘zlar*: Sherali Jo‘rayev, o‘zbek estradasi, estrada xonandaligi, milliy musiqiy tafakkur, ijrochilik uslubi, vokal san’ati, maqom, folklor, mumtoz she’riyat, ijodiy individuallik.*

Bugungi texnologik va axborot rivojlanishi davrida madaniy merosni saqlash hamda uni zamonaviy shakllarda qayta talqin etish dolzarb masalalardan biridir. XX asr o‘zbek estrada san’ati milliy musiqiy meros va jahon ommaviy madaniyati shakllarining murakkab sintezi asosida shakllandi. Uning taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlasak, ayrim ijodkorlar nafaqat mashhur asarlari, balki o‘zlarining konseptual musiqiy fikrlashi bilan butun bir davr yo‘nalishini belgilab berganiga guvoh bo‘lamiz. Ana shunday ulkan shaxslardan biri — O‘zbekiston xalq artisti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti laureati Sherali Jo‘rayevdir (1947–2023).

Xonanda ijodini o‘rganishda uni shunchaki tarjimai hol yoki ommalashgan taronalar ro‘yxati bilan chegaralab bo‘lmaydi. Uning vokal texnikasi, poetik matnga bo‘lgan talabchanligi va milliy lad tizimidan erkin foydalanish mahorati yaxlit bir badiiy tizimni tashkil etadi. Shu bois, musiqashunoslik nuqtayi nazaridan uning merosini atroflicha tadqiq etish bugungi estrada rivojini anglashda dolzarb ahamiyatga ega.

Sherali Jo‘rayev ijodining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, uning milliy musiqa merosiga munosabatida namoyon bo‘ladi. Xonanda repertuariga nazar solsa unda, xalqona ohanglar, mumtoz she’riyat va milliy musiqiy ifoda vositalari muhim o‘rin egallaydi. Uning ijrosida musiqiy material bilan poetik mazmunning bir-birini to‘ldirishi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xonandaning ijodiy uslubini o’rganishda “an’ana va zamonaviylik” munosabati jihatidan o‘rganish maqsadga muvofiq. Chunki an’anaviy musiqiy tafakkur estrada shakliga shunchaki ko‘chirilib bo’lmaydi, balki yangi ijrochilik sharoitida qayta talqin qilinadi. Sherali Jo‘rayev ijrosida milliy ohangdorlik, so‘z ma’nosini ta’kidlash, ovoz tembridan ifodaviy vosita sifatida foydalanish va musiqiy frazani poetik mazmun bilan uyg‘unlashtirish kabi belgilarni ko‘rish mumkin.

Sherali Jo‘rayev ijrosida so‘z va musiqaning mazmuniy birligi yetakchi xususiyatlardan biri sifatida ko‘zga tashlanadi. Xonanda qo‘shiq matnini oddiy vokal material sifatida emas, balki musiqiy obrazning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan. Uning ijrosida talaffuzning aniqligi, so‘z urg‘ularining musiqiy frazalash bilan bog‘lanishi va ovoz tembridan dramatik-ifodaviy vosita sifatida foydalanish muhim o‘rin tutadi. Honanda ijrosi juda yengil va mahorat bilan ijro etilgan. Unda lirik, sokin turdagi asarlar katta qismni egallaganligini ijodiga nazar solsa ko’rish mumkin.

Xonandaning repertuarini tahlil qilishda “O‘zbegim”, “Birinchi muhabbatim”, “Inson qasidasi”, “Karvon”, “Oy yuzinga”, “Gulbadan”, “Kormisham”, “Oshiq bo’ldim” va yana boshqa asarlari keng tarqalgan hamda o’zbek xalqiga yaxshi tanish bo’lgan asarlar alohida ilmiy material bo‘la oladi. Bu qo‘shiqlarda poetik matn, melodik tuzilma, vokal ifoda va ijrochining shaxsiy talqini o‘zaro bog‘langan holda namoyon bo‘ladi.

Sherali Jo’rayev ijodiy yo’lida juda ko’p asarlar ijro etdi va shu ijro asarlari bilan o’zbek estrada san’atini juda ham boyitdi. Shu sabadan ham biz musiqashunoslar buni o’rganish, kelajak avlod uchun muhim manba sifatida tayyorlashimiz zarur.

Sherali Jo‘rayev ijodining alohida ahamiyatga ega jihatlaridan biri uning she’riy repertuaridir. Xonanda ijodida mumtoz va zamonaviy o‘zbek she’riyatining turli namunalari musiqiy talqin topgan. Ayrim mashhur asarlarida Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va boshqa shoirlar ijodidan foydalanilganligi qayd etiladi. Bu holat estrada qo‘shig‘ining badiiy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Murakkab poetik mazmunni ommaviy auditoriyaga yetkazish xonandadan nafaqat vokal mahorat, balki matnning falsafiy va obrazli qatlamlarini tushunishni ham talab qiladi. Shu sababli Sherali Jo‘rayev repertuarini musiqiy-

poetik hodisa sifatida o‘rganish o‘zbek estrada qo‘shig‘ining badiiy tabiatini anglash uchun muhimdir.

Qolaversa, “Sherali Jo‘rayev fenomeni” tushunchasi bir necha omilning birligi sifatida talqin qilinishi mumkin: milliy musiqiy tafakkurga tayanish, mumtoz va zamonaviy she’riyatni estrada repertuariga olib kirish, individual vokal uslub yaratish, xalqona musiqiy obrazlarni zamonaviy sahna sharoitida talqin qilish hamda qo‘shiqning badiiy-falsafiy mazmuniga e’tibor berish va bu jihatlar xonandani o‘zbek estrada tarixidagi oddiy ijrochi ekanligini ko‘rsatmaydi, balki muayyan estetik qarashlarni shakllantirgan ijodkor sifatida tadqiq etishga imkon beradi. 2025-yilda Andijon shahrida Sherali Jo‘rayev nomidagi musiqa va san’at oliy maktabi tashkil etilishi ham uning ijodiy merosini ilmiy va ta’limiy jihatdan tizimlashtirishga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi. Maktab doirasida uning qo‘shiqlarining “oltin fondi”ni yaratish va ilmiy-ijodiy laboratoriya tashkil etish ko’zda tutamiz.

Sherali Jo‘rayev ijodini kelgusida alohida monografik tadqiqot darajasida o’rganish zarur, uning repertuarini kataloglashtirish, qo‘shiqlarining nota va audio materiallarini tizimlashtirish hamda ijrochilik uslubining aniq musiqiy parametrlarini belgilash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Xulosa

Sherali Jo‘rayev ijodi o‘zbek estrada san’atida milliy musiqiy tafakkur, mumtoz she’riyat va zamonaviy ijrochilik shakllarining o‘zaro aloqasini o‘rganish uchun muhim ilmiy manbadir. Xonandaning ijodiy individualligi repertuar tanlovi, vokal ijrochilik uslubi, she’riy matnni musiqiy talqin qilish mahorati va milliy musiqiy an’analarga munosabatida namoyon bo‘ladi. Uning merosini chuqur o‘rganish nafaqat bir san’atkorning ijodiy yo‘lini yoritadi, balki O‘zbekiston estrada xonandaligining shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga ham yordam beradi. Kelgusida Sherali Jo‘rayev ijodining alohida monografik tadqiqotini yaratish, uni Botir Zokirov, Yulduz Usmonova, Nasiba Abdullaeva, Ozoda Nursaidova va boshqa yirik ijodkorlar bilan qiyosiy o‘rganish o‘zbek estrada xonandaligining milliy ijrochilik maktabini yaxlit ilmiy tizim sifatida ochib berishga e’tibor qaratamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo‘rayev Sh. Bola dunyoni tebratar. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. — 120 b.
2. Jo‘rayev Sh. Bir qo‘shiq kuylayki... — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. — 160 b.

3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 3-jild (J — Darakshab). — Toshkent: "O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.

4. Oyto‘rayev A. O‘zbek estrada san’atida an’anaviylik va zamonaviylik muammolari // Innovations in Science and Technologies. — 2024. — №2. — B. 45–50.

5. Qosimov B. O‘zbek estrada san’atida Sherali Jo‘rayev ijodining o‘rni // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2025. — Vol. 5, Issue 3. — P. 112–119.